

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA KECHKI SOAT BO'YICHA TAVSIYALAR

Ostonova Nafisa Alisher qizi

Samarqand viloyati Narpay tuman 22-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Maqolada bog'cha yoshidagi bolalarning rivojlanishida kun tartibining ahamiyati. Kechki soatlarni tog'ri tashkillashtirish. Bog'cha yoshidagi bolalar faoliyatida o'yinning ahamiyati.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 9-sentabr kuni "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori tasdiqlandi.

Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida olinadigan barcha ma'lumotlarning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi kerak.

Darhaqiqat, so'z o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bu davrda inson bolasi borliqni anglaydi, atrofdagi olam bilan tanishadi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, do'stlar, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida olinadigan bilimlariga zamin hozirlaydi.

O'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu sohada sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan 57 mingdan ortiq mutaxassislar mehnat qilmoqda. O'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlanish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etishdir. Shu munosabat bilan, Davlat rahbari tomonidan 2017-yil 9-sentabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror bilan Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta'lim sohasidagi faoliyati takomillashtirish nazorati olib borildi. Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining amalga oshirilishi mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilish,maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlashini tubdan yaxshilashga imkon berdi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibining to'g'ri shakllanganligi maktabgacha yoshdagi bolalarning kun davomida vaqtining samarali o'tkazilishini ta'minlab beradi.

Kunning ikkinchi yarmini to'g'ri tashkillashtirish:

1.Yakka tartibda ishlash.

2.Kuzatish.

3.She'r, qo'shiq, topishmoq aytish va suhbat

4.O'yinlar (ta'limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, sahnalashtirish, didaktik)

5.Ko'ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta). Kechki sayr.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab har bir bolaning kun davomida mazmunli va qiziqarli faoliyati bilan shug'ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishini va baxtli bolaligini ta'minlashdir.

Kuzatish orqali odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-oshoralari, sezgirligi, harakatchanligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokozolari o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalarni tadbiq etishga bu metodning imkoni yetishmaydi. Masalan, bolani kuzatishda uning harakati, o'yinchoqlarga bo'lgan munosabati, his-tuyg'usi, talpinishi, bolaning xohish istaklari, o'zi tengi tengqurlariga nisbatan qiladigan hatti-harakatlarining, munosabatining qandayligi atrofda qiladigan nisbatan muomalasi orqali uning xarakteri aniqlanadi.

KUZATISHNING TARTIBI:

1.Kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;

2.Kuzatiladigan obyekt tanlanadi;

3.Sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi;

4.Tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;

5.Kuzatish qancha vaqt davom etishi qat'iylashtiriladi;

6.Kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda)

7.Amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;

8.Kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;

9.Kuzatiladiganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi) taxt qilinadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning birinchi yarmiga nisbatan ikkinchi yarmida bolalar bilan faollik markazlarida ish olib bormaslik lozim. Bolalar bilan ko'proq erkin mavzularda she'rlar, ertaklar, topishmoqlar aytish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali bolada o'z nutqini to'g'ri ifodalay olishiga va xalq og'zaki ijodi namunalariga, milliy madaniyatimizga mehr muhabbat bilan ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Turli xil o'yinlar bolaning

ham aqliy ham jismoniy kamolga erishishiga ko`maklashadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida “Qo`g`irchoq teatri”, “Barmoq teatri”, “Stol teatri” turlaridan ko`plab foydalaniladi. Bu kabi teatr turlari barcha yoshdagi bolalarning e`tiborini tortadi. Bolalarda sahna ko`rinishlari orqali tasavvur qilish, ijodkorlik qobiliyati ulg`ayib boradi. Ayniqsa, kichik guruhlar uchun tashkil etilgan sahna ko`rinishlaridan bolalar yaxshi va yomonni ajrata olishi shakllanadi. Didaktik o`yinlar bolada yangi bilim va ko`nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, allaqachon olingan bilimlarni birlashtiradi, atrofdagi voqealik hodisalarini aks ettiradi, didaktik o`yin va tabiiy materiallarni yaratish bolalar o`yining eng yaxshi variantidir. Shu maqsadda, “O`rmonni bil” o`yini o`rta va katta yoshdagi bolalar uchun dolzarbdir. U orqali bolalar birinchi marta yangi turdagi daraxtlar bilan tanishadilar, ularda qanday mevalar o`shishini aniqlaydilar. Kichik guruhlarda mazmuni va qoidasiga ko`ra sodda bo`lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o`yinlar tashkil etiladi. Bu o`yinlar orqali barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig`ini tarbiyachining bevosita ishtirokida bajaradilar. 3 yoshli bolalar sekin-asta yakka holda rollarni bajarishga o`rgatilib boriladi. O`rta guruhlarda eng oddiy musobaqa usulidagi o`yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o`tkazish mumkin. Katta guruhlarda bolalar uchun harakatli o`yinlar o`z mazmuni, qoidalari, rollarining miqdori, topshiriq jamoa musobaqasiga joriy etishga ko`ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o`yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o`yinlarni, o`yin estafetasi, sport o`yinlarini o`ynaydilar. Bularning barchasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O`rta guruh uchun tavsiya etilgan o`yin:

“Yo`qotilgan o`yinchoq”

Maqsad: fikrlarni rivojlantirish, diqqatni jamlash qobiliyati.

Tavsif: Bolalarning oldiga bir necha o`yinchoqlar qo`yiladi, ularga diqqat bilan qarash va eslab qolish so`raladi, keyin maktabgacha yoshdagi bolalar ko`zlarini yumadi. Bitta o`yinchoq olib tashlanadi va qaysi o`yinchoq yashiringanligini ko`rishni so`raydi. Agar o`yinchoq almashtirilsa bu o`yin murakkablashadi.

4-5 yoshli maktabgacha yoshidagi bolalar uchun o`yinlar.

“Qayerda biror nima qila olasiz”

Maqsad: Nutqda fe`llarni qo`llash qobiliyatini, tinglash qobiliyatini, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish.

Tavsif: Bolalar tarbiyachining savollariga javob berishadi: O`yin maydonchasida nima qilish mumkin? (dam olish, yugurish, o`yin o`ynash va h.k)

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning qiziqishiga va kayfiyatiga bog`liq. Har bir bola erkin holda o`zi istagan faollik markazini tanlashi va u yerda ishlashi mumkin. Tarbiyachi bolalarni kuzatishi va zarur holda unga yordam ko`rsatishi zarur. Tarbiyachi unutmazligi kerak: faollik markazida bolani majburlamaslik; bolaning erkin faoliyat uchun imkoniyat yaratib berish. Eng asosiysi faollik markazida hamma narsa bola uchun qiziqarli bo`lishi lozim. Mashg`ulotning maqsadida tarbiyachi bolalarga beriladigan ta`lim va tarbiya vazifalarini ko`rsatadi. Bolalar egallashi lozim bo`lgan

bilim,ko`nikma,malakalarini hajmini aniq belgilaydi.Mashg`ulotning borishi to`liq yozilmay,manbaning muallifi,ishlanmaning betini ko`rsatib o`tish kifoya.So`ngra zaruriy jihoz va ko`rgazmalarni ko`rsatadi.Mashg`ulot ishlanmasi yozilgan metodik qo`llanma yo`q bo`lsa,tarbiyachi mashg`ulot ishlanmasini yozishi kerak.Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o`yindir.Bog`cha yoshidagi bolalarning o`yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko`p olimlarning diqqatini o`ziga jalb qilib kelmoqda.

XULOSA

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tahsil olayotgan jazzi bolajonlar o`zlarining o`yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg`a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.Ma`lumki,bolalarning yoshi ulg`ayib,mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari,uning atrofidagi narsa va hodisalar bo`yicha dunyoqarashi kengayib boradi.Bog`cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo`lishga intiladi.Bu o`rinda shu narsa xarakterliki,bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o`zining xaddi sig`adigan narsalari bilangina emas,balki kattalar uchun mansub bo`lgan,o`zining kuchi ham yetmaydigan,haddi ham sig`maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo`lishga intiladi. Masalan:bola avtomashinani yoki tramvayni o`zi haydagisi,rostakam otga minib yurgisi,uchuvchi bo`lib,samolyotga uchgisi va rostakam harbiy bo`lgisi keladi.Bu o`rinda savol tug`iladi:bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o`rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo`l bilan xal qilinadi?Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali,ya`ni,bolalarning o`yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin.Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

*birinchidan,bolalarning o`yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas.Shuning uchun bolalarni o`yinga undovchi sabab (motiv)kelib chiqadigan natija bilan emas,balki shu o`yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog`liqdir.

*ikkinchidan esa,bolalar o`yin jarayonida o`z ixtiyoridagi narsalarni,o`zlarini qiziqtirgan,ammo kattalargagina mansub bo`lgan narsalarga aylantirib, xohlaganicha erkin faoliyatda bo`ladilar.

Bolalarning o`yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.O`yin bolalar hayotida shunday ko`p qirrali faoliyatki,unda kattalarga mansub bo`lgan mehnat ham ,xom-hayol surish,dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o`yin faoliytida aniq bo`ladi.Shuni ta`kidlab o`tish kerakki,o`yin faqat tashqi muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas,balki qudratli tarbiya vositasi hamdir,ijodiy va syujetli o`yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi.Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi ta`lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko`p jihatdan bolalarning o`yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog`liqdir.Bog`cha yoshidagi bolalarning o`yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo`lishi bilan birga,yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.O`zgacha qilib aytganda o`yin

qudratli tarbiya quolidir. Bolalarning o`yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya`ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o`yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o`yin jarayonida ularning barcha xislatlari (kimning nimaga ko`proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo`lishini ko`ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G., Sh.Do`stmammedova, M.Mavlonov, S.To`ychiyeva "Yosh davrlarni va pedagogik psixologiya" o`quv metodik qo`llanma. T.2004. 118-b.
2. "Maktabgacha pedagogika" o`quv uslubiy majmua
3. Maktabgacha ta`lim jurnali. №1. 2000-y
4. Pedagogika tarixi. A.Zunnunov, B.To`xliyev. 2002-y
5. "Maktabgacha ta`lim" jurnali. 6 (166)-son 2009-y, iyun
6. Maktabgacha ta`lim muassasalari bo`lajak tarbiyachilarini tayyorlashda ta`lim jarayonida dasturiy maxsulotlardan foydalanishning dolzarbligi". O.Qahhorov, U.Xalikova, M.Hamroyev. 2020-y
7. Sh.Mirziyoyev. "Maktabgacha ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi qarori.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta`lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi qaroriga sharh.